

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 658.5:332.012.324:677.001.76

NASIMOV BAXTIYOR VASIYEVICH

**PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI KORXONALARIDA
ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – “Menejment” ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: i.f.d., prof. R.I.Nurimbetov

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

KIRISH	4
I- BOB. PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING ILMIY- METODOLOGIK ASOSLARI	17
1.1. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning nazariy-metodologik jihatlarini	17
1.2. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning operatsion jihatlarini	33
1.3. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning xorijiy tajribalari	47
1-bob bo‘yicha xulosa	58
II- BOB. PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	60
2.1. Ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish bilan bog‘liq asosiy muammolarni identifikatsiyalash	60
2.2. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning joriy holati tahlili	72
2.3. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida zahiralarini boshqarish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili.....	87
2-bob bo‘yicha xulosa	99
III- BOB. PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	101
3.1. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda ustuvor ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar	101
3.2. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida logistik jarayonlarni optimallashtirish va ta’minot zanjirlarini boshqarish	109
3.3. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida mahsulotga talab va taklifni bashorat qilish	126
3-bob bo‘yicha xulosa	139
IV- BOB. PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	142
4.1 Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish modellarini takomillashtirish	142
4.2 Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha	

	tavsiyalarni ishlab chiqish	156
4.3	Joriy qilingan o‘zgarishlar samaradorligini baholash va ularni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish	172
	4-bob bo‘yicha xulosa	187
	X U L O S A	189
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	194

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. To‘qimachilik sanoati dunyoda millionlab ish o‘rinlarini ta‘minlovchi eng yirik tarmoqlardan biri bo‘lib hisoblanadi. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish ko‘plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga sezilarli hissa qo‘shadi, xalqaro savdoning rivojlanishiga yordam beradi. So‘nggi yillarda to‘qimachilik sanoatining bozori hajmi sezilarli ravishda o‘rdi. Jahon bankining bashoratlari bo‘yicha u yillik o‘rtacha 8,7% lik o‘rish sur‘ati bilan 2024 yildagi 640,43 mlrd. dollardan 2025 yilda 696,16 mlrd. dollargacha o‘shib boradi¹. To‘qimachilik sanoati tobora baynalmilallashib bormoqda, bu turli mamlakatlardagi korxonalar uchun logistik zanjirlarni, ta‘minot muddatlarini va siyosiy tavakkallarni hisobga olish zaruratini keltirib chiqarib, bu bevosita zahiralarini boshqarishga ta‘sir ko‘rsatadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘qimachilik tarmog‘i korxonalari ta‘minotning intellektual zanjirlari rivojlanishining mustahkam asoslarini yaratish bilan logistik faoliyatga intellektual texnologiyalarni joriy qilishda faol ishtirok etmoqdalar. Ko‘plab mamlakatlarning to‘qimachilik ishlab chiqarishida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi yanada barabar va samarali kelajakka qarab yo‘l ochadigan asosiy o‘zgartiruvchilar sifatida o‘rtaga chiqadi.

O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi, shuning uchun to‘qimachilik sanoati yetakchi va dinamik rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish paxtani yetishtirishdan boshlab to uni qayta ishlash va yakuniy to‘qimachilik mahsulotini ishlab chiqarishgacha bo‘lgan butun boshli ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib sanaladi. O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish sermehnat va murakkab jarayon bo‘lib hisoblanadi, chunki

¹ World Bank Group - International Development, Poverty, & Sustainability <https://www.worldbank.org/>

zahiralarini saqlash uchun sarflar va logistik tizimning moslashuvchanligi orasidagi optimal nisbatni aniqlash zarur bo'ladi. O'zbekistonni barqaror rivojlantirish strategiyasi tabiatni muhofaza qiluvchi bo'lib hisoblanadigan va resurslarni ma'suliyat bilan qayta ishlaga ko'maklashuvchi yopiq sikldagi modeldan foydalanish bilan mamlakat paxta-to'qimachilik klasterlarining rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi va korxonalarning ishlab chiqarish zahiralaridan yanada samarali foydalanishga imkon beradi. Paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishni takomillashtirishning muhim yo'nalishi bo'lib raqamli innovatsion texnologiyalarni qo'llash hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "“Raqamli O'zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023 yil 26 yanvardagi PF-23-son "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnikani rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy davlatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi. Jahonda paxta-to'qimachilik klasterlarining operatsion faoliyatida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan, Jahon banki (World Bank), paxtani yetishtirish, xalqaro savdo va iste'mol qilish sohasida

hamkorlikdan manfaatdor bo'lgan mamalkatlarni birlashtiruvchi Paxta bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasi (ICAC), Savdo va rivojlanish bo'yicha YuNKTAD anjumani (UNCTAD), to'qimachilik sanoati buyumlari va texnologiyalari bo'yicha har yillik anjumanlar va ko'rgazmalarni tashkil etuvchi To'qimachilik va yengil sanoat bo'yicha xalqaro assotsiatsiya (ITAA) kabilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

To'qimachilik sanoati ishlab chiqarish zahiralari boshqarish samaradorligi muammolari Georgia Institute of Technology (AQSh), University of Manchester (Buyuk Britaniya), Istituto Europeo di Design (Italiya), Kyung Hee University, (Koreya Respublikasi), Shanghai University of Science and Technology (Xitoy), Indian Institute of Technology Delhi (Hindiston) kabi dunyodagi yetakchi universitetlarining olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan.

Georgia Institute of Technology ning olimlari to'qimachilik muhandisligi va ta'minot zanjirlarini boshqarish sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. A.J. Schmitt va M. Singh ning tadqiqotlari diskret hodisalarni modellashtirish yo'li bilan ta'minot zanjiridagi uzilishlar tavakkalini miqdoriy baholashga bag'ishlangan².

Shanxay fan va texnologiyalar universitetida (Shanghai University of Science and Technology) yadro sifatida avtomatlashtirilgan uch o'lchamli omborga ega logistik tizim ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. Xitoylik olimlardan Y. Cheng va J. Peng Xitoy to'qimachilik klasteri korxonalarida yadro sifatida avtomatlashtirilgan uch o'lchamli omborga ega logistik tizimni ishlab chiqdilar³.

Ombor qurilmalarida intellektual datchiklardan foydalanish bilan zahiralarni ko'p kanalli nazorat qilish texnologiyasining qo'llanilishi Berkli

²Schmitt A.J., Singh M. Quantifying supply chain disruption risk using monte carlo and discrete-event simulation // Rossetti M.D., Hill R.R., Johansson B. et al. (eds). Proceedings of the 2019 Winter Simulation Conference. P. 1237-1240.

³ Cheng Y., Peng J., Warehouse logistics in China at textile enterprises// IFAC-Papers OnLine. 2022. Vol. 50 (1). p. 12255-1259.

(University of California, Berkeley)dagi Kaliforniya universitetida ishlab chiqilgan⁴.

Ta'minot zanjirlari samaradorligi va shaffofligiga erishish uchun dastak sifatida blokcheyn texnologiyasidan foydalanish Hindiston texnologiya institutida (Indian Institute of Technology Delhi) ishlab chiqilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta-to'qimachilik klasterlaridagi ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari muallif tomonidan Sh.Ma, Yu.Lin, Lyu Siszya, R.M. Difrancesco, A. Huchzermeier, A.J. Schmitt, M. Singh, M.D. Rossetti, R.R. Hill, B. Johansson, R.M. Difrancesco, A. Huchzermeier, R. Kaplan, D. Norton, A. Braun, W. Malsam, D. Szyundji, M.A. Waller, S.E. Fawcett kabi xorijilik olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish asosida ko'rib chiqilgan⁵.

To'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning turli jihatlari va ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda raqamlashtirish jarayonlari MDH mamlakatlari olimlari Ye.A. Islankina, N.V. Kurganova, M.A. Filin, D.S. Chernyaev, A.G. Shaklein, D.Ye. Namiot, V.N. Tregubov, N.A. Xromix, V.A. Agafonov, V.I. Malyuk, B.S. Mashukova, V.A. Titov, O.L. Morozov, R.A.

⁴Ben-Daya M. Internet of things and supply chain management: A literature review // International journal of production research. 2019. Vol. 57. Iss. 15, P.12-18; Rice J.B., Caniato F. Building a secure and resilient supply network // Supply Chain Management Review. 2023. Vol. 7. P. 22-26.

⁵ Ма Ш., Линь Ю. Управление цепями поставок. – Пекин: Изд-во машиностроения, 2016, - 205 Лю Сыцзя Интеллектуализация цепей поставок предприятий текстильной промышленности в условиях перехода к экономике замкнутого цикла: дисс. канд. эконом. наук, Санкт - Петербург, 2023; с.; Difrancesco R.M., Huchzermeier A. Closed-loop supply chains: a guide to theory and practice // International Journal of Logistics. 2023. №19. P. 443-448; Schmitt A.J., Singh M. Quantifying supply chain disruption risk using monte carlo and discrete-event simulation // Rossetti M.D., Hill R.R., Johansson B. et al. (eds). Proceedings of the 2019 Winter Simulation Conference. P. 1237-1242; Difrancesco R.M., Huchzermeier A. Closed-loop supply chains: a guide to theory and practice // International Journal of Logistics. 2016. №19. p. 443; Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. — М.: Олимп-Бизнес, 2008. – 298 с.; Браун, А. Роль аналитики в современном управлении запасами / А. Браун. – Международный журнал исследований операций. – 2019. – С. 111-117; Malsam W. Operational Strategy: A Quick Guide <https://www.projectmanager.com/blog/operational-strategy>; Цзюньчжи Д. Анализ жизненного цикла текстильных кластеров: на примере китайских текстильных предприятий провинции Чжэцзян // Научные исследования экономического факультета. Электронный журнал. 2023. Том 15. Выпуск 2. С. 58-62; Waller M.A., Fawcett S.E. Data Science, Predictive Analytics, and Big Data: A Revolution That Will Transform Supply Chain Design and Management // Journal of Business Logistics. 2023. Vol. 34 (2). P. 77-82.

Karadjaev, M.A. Matveeva, R.A. Isaev, A.D. Kilimova kabilarning ilmiy ishlarida o'rganilgan⁶.

Paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning nazariy-metodologik jihatlarini N.M. Mo'minova, O.D. Jo'rabaev, N. Yo'ldoshev, B. Tursunov, B.A. Paluanov, A.P. Pirmatov, A.R. Tolibaev, M.A. Abatov, kabi milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan⁷.

A.A. Sultonov, G.D. Xolmatjonova, Z.M. Mirzaaxmadov, Yu.S. Shokirova, kabi olimlar o'zlarining tadqiqotlarini paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning operatsion jihatlarini o'rganishga bag'ishlaganlar⁸.

⁶ Исланкина Е.А. Инновационные кластеры-лидеры инвестиционной привлекательности мирового уровня: методические материалы Минэкономразвития России, АО «РВК». Москва: НИУ ВШЭ, 2017. – 152 с.; Курганова Н.В., Филин М.А., Черняев Д.С., Шаклеин А.Г., Намиот Д.Е. Внедрение цифровых двойников как одно из ключевых направлений цифровизации производства // International Journal of Open Information Technologies. 2019. - Том. 7, № 5. -С. 105-110; Трегубов, В.Н. Реализация автономной логистики на основе технологий интернета вещей и блокчейн / В.Н. Трегубов // Современные информационные технологии и ИТ-образование. – 2019. – том 15, №3. – С.782-789; Хромых, Н.А. Экономический анализ оборотных активов предприятия / Н.А. Хромых. - М.: Русайнс, 2018. – 259 с.; Агафонов В.А. Стратегический менеджмент. Модели и процедуры: Монография / В.А. Агафонов. - М.: Инфра-М, 2019. – 310 с.; Матвеева М. А. Цифровизация процессов управления запасами на предприятии // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. — 2019. — № 12. — С. 91-96; Исаев Р.А. Методология совершенствования стратегического управления на основе управления качеством в текстильной промышленности диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам, Ташкент, 2023. – 195 с.; Килимова А.Д. Трансформация технологий организации производства в текстильной и легкой промышленности на основе искусственного интеллекта: дисс. на соискание уч. степени канд. техн. наук, Санкт-Петербург, 2022. – 169 с.; Малюк В. И. Производственный менеджмент. — М.: Юрайт. 2024. – 305 с.; Машукова Б. С. Основные принципы цикличной экономики (экономика замкнутого цикла) // European Science. - 2016. - № 7 (17). - С. 14-19; Титов В. А., Морозов О. Л. Теоретические и практические аспекты реализации принципов экономики замкнутого цикла // На страже экономики. - 2019. - № 3 (10). - С. 39-44; Караджаев, Р. А. Текстильный комплекс и основы его экономического развития / Р. А. Караджаев. — Текст: непосредственный // Экономика, управление, финансы: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Краснодар, август 2015 г.). — Краснодар: Новация, 2015. — С. 100-105.

⁷ Муминова, Н. М. Сегментарный анализ рыночного потенциала текстильной промышленности Узбекистана / Н. М. Муминова// Молодой ученый. — 2015. — № 12 (92). — С. 46-50; Джурабаев О.Д. Современное состояние и уровень развития производительных сил хлопково-текстильных кластеров// Journal of marketing, business and management. – 2023. – т.2.- №4. С.19-30; Юлдашев, Н. Значение управления производственными запасами в повышении производственных мощностей текстильных предприятий / Н. Юлдашев, Б. Турсунов. - (Организация и управление). - Текст: непосредственный // Экономист. - 2017. - № 11. - С. 90-95; Палуанов Б.А., Пирматов А.П., Толыбаев А.Р., Абагов М.А. Анализ характеристик технологических процессов хлопково-текстильного кластера// Universum: технические науки. – 2024. - №3(120). – С.5-8;

⁸ Султанов А.А. Повышение эффективности управления диверсификацией производства на предприятиях текстильной промышленности: автореферат диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам, Ташкент, 2017. – 19 с.; Халматжанова Г.Д., Мирзаахмадова З.М. Хлопково- текстильный кластер – приоритетное направление развития нашей страны//Евразийский союз ученых. 2021. № 3-3 (84) С. 20-25; Шакирова Ю.С. Перспективы развития текстильной промышленности

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlar paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish masalalarini, shu jumladan, tarmoqni barqaror rivojlantirish va logistik jarayonlarni raqamlashtirish jihatlaridan ham ko'rib chiqqanlar.

Lekin paxta-to'qimachilik klasterlarining operatsion faoliyatida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini majmuaviy tarzda takomillashtirishga bag'ishlangan nazariy-metodologik masalalar tizimli ravishda o'rganilmagan. Mazkur ilmiy tadqiqotda O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlaridagi ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning joriy holati tahlili amalga oshirilgan, mazkur faoliyatni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan, ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish tizimini shu jumladan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan majmuaviy takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, ularning samaradorligini iqtisodiy baholashni amalga oshirish metodikasi taklif etilgan. Bularning barchasi tanlab olingan mavzuning dolzarbligini, uning maqsadini va bunda hal qilinadigan masalalar doirasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Eksport tovarlarini ishlab chiqarishda operatsion strategiyani rivojlantirish: muammolar va istiqbollar" mavzusilagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishni nazariy-metodologik tadqiq qilish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarishning operatsion jihatlarini ilmiy tadqiq qilish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarishdagi xorijiy tajribalarni ilmiy tadqiq qilish;

ishlab chiqarish zahiralari boshqarish bilan bog'liq asosiy muammolar va qiyinchiliklarni identifikatsiyalash;

paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarishning joriy holatini tahlil qilish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarishdagi ustuvor ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalarni tahlil qilish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida ta'minot zanjirlarini boshqarish va logistik jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida mahsulotga talab va takliflarni prognoz qilish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarish modellarini takomillashtirish;

paxta-to'qimachilik klasterlarida zahiralarni boshqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

joriy qilingan o'zgarishlar samaradorligini baholash va ularni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib paxta-to'qimachilik klasterlarining faoliyatida ishlab chiqarish zahiralari boshqarish metodologiyasini takomillashtirishda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini tayyorlash jarayonida umumilmiy (tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish), formal-mantiqiy, gorizonta va

vertikal tahlil, ekonomterik modellashtirish, omilli tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, bashoratlash kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta-to'qimachilik klasterlaridagi tugallanmagan ishlab chiqarishda zahiralar umumiy qiymatini aniqlashda zahiralar o'zgarishining "boshlang'ich bosqichi" (t_1 – qiymatning sekin o'sib borishi), "asosiy bosqichi" (t_2 – qiymatning keskin o'sib borishi), "yakunlovchi bosqichi" (t_3 – qiymat o'sish sur'atining kamayib borishi) davrlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali ishlab chiqarish oqimlarini muvozanatlashtirish, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun materiallar va komponentlarni o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash taklifi asoslangan;

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishining inersion va innovatsion ssenariylari asosida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibidagi korxonalar biznes-jarayonidagi ombor bo'ylab tovarlarni ortiqcha tashish holatini tovar ko'chishi traektoriyasini qisqartirish uchun omborda zahiralarini joylashtirish hududlarini o'zgartirish, asosiy ombor operatsiyalari bo'limlarini bir-biriga maksimal yaqin joylashtirish, kiruvchi va chiquvchi material oqimlarini aniq ajratish bo'yicha tuzatish kiritish orqali takomillashtirilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish dasturini optimallashtirish va zahiralarini boshqarish bo'yicha vazifalarning yechimiga erishishda ishlab chiqarish dasturi hisob-kitobida xom-ashyo mavjudligi bo'yicha cheklovsiz marjinal daromadni maksimallashtirish mezonidan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha 3%–5%ga qisqartirish imkonini hosil qilish taklifi asoslangan;

paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibidagi korxonalarning zahiralarini boshqarish uchun "raqamli egizak"ni modellashtirishda samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari (KPI) modelga yangi ma'lumotlarni integratsiyalash va qayta

ishlash uchun zarur bo'ladigan vaqt orqali ifodalanuvchi ma'lumotlarning yangilash tezligini hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarning (PKT) ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda mavjud bo'lgan muammolar va qiyinchiliklar aniqlangan;

logistik jarayonlarni optimallashtirishni baholash metodikasi ishlab chiqilib, bu ularning samaradorligini va ta'minot tarmog'idagi transformatsiyalashuv darajasini tahlil qilish imkonini bergan;

paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda raqamli egizaklar texnologiyasi, 3D-tasvirlardan foydalanish bilan omborni robotlashtirish, ombor ishini optimallashtirish, onlayn rejimida ishlab chiqarish zahiralarining miqdori va assortimenti haqida ma'lumotlarni olish, tig'iz paytlardagi zo'riqishlar va tanqisliklar oldini olish imkonini beruvchi buyumlar interneti (IoT) texnologiyasi, blokcheyn texnologiyasini joriy qilish taklif qilingan;

innovatsion texnologiyalarning joriy qilinish darajasini, korxona ishida innovatsiyalardan samarasiz foydalanish sabablari yoki kamchiliklarni aniqlashga imkon beradigan PTK korxonalarining ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston PTK lari rivojlanishining inersion va innovatsion ssenariylarini ko'rib chiqadigan ma'lumotlarning prognozli modeli hisoblab chiqilgan;

PTK korxonalarining ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi darajasini baholash imkonini beruvchi ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini majmuaviy baholash tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishlab chiqarish zahiralarini operatsion boshqarish bo'yicha iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlarini taqqoslama

tahlil qilishdan foydalanish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuv va metodlarning asoslanganligi, tahlil uchun ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning aprobatga qilinganligi, olingan natijalarning iqtisodiy nazariyalarga mosligi, shuningdek, ularning mos holdagi vakolatli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan paxta-to'qimachilik klasterida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda foydalanishdan, paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha tavsiyalar bo'yicha dissertatsiyada ishlab chiqilgan uslublarni amaliy qo'llash imkoniyatidan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish uchun ilmiy-metodologik manba sifatida foydalanish va paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, "Operatsion menejment", "Ishlab chiqarish menejmenti" va "Strategik menejment" fanlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari ham darsliklarni tayyorlashda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta-to'qimachilik klasterlarining operatsion faoliyatida ishlab chiqarish zahiralarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

paxta-to'qimachilik klasterlaridagi tugallanmagan ishlab chiqarishda zahiralar umumiy qiymatini aniqlashda zahiralar o'zgarishining "boshlang'ich bosqichi" (t_1 – qiymatning sekin o'sib borishi), "asosiy bosqichi" (t_2 – qiymatning keskin o'sib borishi), "yakunlovchi bosqichi" (t_3 – qiymat o'sish sur'atining kamayib borishi) davrlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali ishlab chiqarish oqimlarini muvozanatlashtirish, tayyor mahsulotni ishlab

chiqarish uchun materiallar va komponentlarni o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash taklifi O'zbekiston PTKlar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 19 martdagi №04-07-27-3096-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida aylanma aktivlar aylanuvchanligi tezligini oshirishga va muomala fondlari rentabelligini o'rtacha 4,2% ga oshirishga erishilib, bu xom-ashyo oqimini sezilarli ravishda muvozanatlashtirishga imkon bergan;

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishining inersion va innovatsion ssenariylari asosida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston PTKlar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 19 martdagi №04-07-27-3096-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish va aylanma aktivlar bilan uzluksiz ta'minlash bo'yicha strategiyani optimallashtirish va takomillashtirish imkoni yaratilgan.

paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibidagi korxonalar biznes-jarayonidagi ombor bo'ylab tovarlarni ortiqcha tashish holatini tovar ko'chishi traektoriyasini qisqartirish uchun omborda zahiralarini joylashtirish hududlarini o'zgartirish, asosiy ombor operatsiyalari bo'limlarini bir-biriga maksimal yaqin joylashtirish, kiruvchi va chiquvchi material oqimlarini aniq ajratish bo'yicha tuzatish kiritish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 19 martdagi №04-07-27-3096-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida O'zbekiston Respublikasi paxta-to'qimachilik klasterlaridagi zahiralarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar samaradorligini majmuaviy baholash tizimini joriy qilish natijasida sezilarli ravishda raqobatbardoshlikni oshirishga, resurslar boshqarilishini optimallashtirishga va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini yaxshilashga muvaffaq bo'lingan;

paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish dasturini optimallashtirish va zahiralarini boshqarish bo'yicha vazifalarning yechimiga erishishda ishlab chiqarish dasturi hisob-kitobida xom-ashyo mavjudligi bo'yicha cheklovsiz marjinal daromadni maksimallashtirish mezonidan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha 3% – 5%ga qisqartirish imkonini hosil qilish taklifi O'zbekiston PTKlar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 19 martdagi №04-07-27-3096-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida ishlab chiqarish dasturini optimallashtirish bo'yicha va zahiralarini boshqarish bo'yicha vazifalarning yechimi taklif etilib, mazkur uslubni joriy qilish natijasida paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha 3,1%ga optimallashtirishga muvaffaq bo'lingan;

paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibidagi korxonalarning zahiralarini boshqarish uchun "raqamli egizak"ni modellashtirishda samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari (KPI) modelga yangi ma'lumotlarni integratsiyalash va qayta ishlash uchun zarur bo'ladigan vaqt orqali ifodalanuvchi ma'lumotlarning yangilash tezligini hisobga olish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston PTKlar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 19 martdagi №04-07-27-3096-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida ishlab chiqarish zahiralarini optimal boshqarish bilan bog'liq bo'lgan samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari ancha aniq hisoblab chiqilib, bu o'z navbatida O'zbekiston klasterlari bo'yicha bilvosita xarajatlarni o'rtacha 3,3% ga optimallashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan o'tkazilishi. Tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlardan muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining nashr qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik

dissertatsiyasining asosiy natijalarini nashr qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 58 ta rasm, 51 ta jadval, 4 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 193 varaqni tashkil qiladi.